

**“MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTINING O‘RNI VA BADIY  
IZLANISHLARI”**

*Urganch RANCH texnologiya  
universiteti 2-kurs talabasi*

*Quryozova Karomat*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Isajon Sulton asarlaridagi tabiat tasviri , xususan "Shamolli kecha " hikoyasining badiiy talqini keng yoritildi . Shuningdek tabiat tasviri masalasi ham ilmiy muomalaga tortilgan.

**ANNOTATION:** In this article, the description of nature in the works of Isajon Sultan, in particular, the artistic interpretation of the story "Windy Night" was widely covered. Also, the issue of the image of nature has been brought into scientific treatment.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье широко освещено описание природы в творчестве Исаджона Султана, в частности, художественная интерпретация повести «Ветреная ночь». Также в научную обработку введен вопрос об образе природы.

**KALIT SO‘ZLAR:** tabiat tasviri , shamol , o‘gay ona motivi , o‘gay bolalar motivi , peyzaj , hikoya , o‘zbek xalq ertaklari stilizatsiyasi .

**KEY WORDS:** image of nature, wind, motif of stepmother, motif of stepchildren, landscape, story, stylization of Uzbek folk tales.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** образ природы, ветер, мотив мачехи, мотив пасынков, пейзаж, сюжет, стилизация узбекских народных сказок.

Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligi haqida so‘z borganda , qariyb o‘ttiz yilga teng vaqt oralig‘idagi badiiy tafakkur namunalari nazarda tutiladi. O‘tgan davr mobaynida turli mavzu va yo‘nalishdagi yuzlab romanlar dunyo yuzini ko‘rdi . Istiqlolning dastlabki 10 yilligida tarixiy , ijtimoiy mavzudagi asarlar ko‘p yozildi . Hozirgi adabiy jarayonda Sh. Xolmirzayev , O.Muxtor , Muhammad Ali , M.M.Do‘sst , Nazar Eshonqul , I.Sulton , L . Bo‘rixon singari ijodkorlarning o‘ziga xos yo‘sindagi yaratgan asarlari milliy nasr taraqqiyotini ta‘minlamoqda . Bugungi kunning shunday yorqin ijodkorlaridan biri , O‘zbekiston xalq yozuvchisi va xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Isajon Sultondir . Uning dastlab romanlari keyinchalik yaratgan o‘ziga xos hikoyalari ham e’tirofga sazovor bo‘lib kelmoqda . Bir qancha hikoyalari xalqaro tanlovlarda sovrinli o‘rinlarga loyiq ko‘rildi.

Taniqli o‘zbek yozuvchisi va adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam Isajon Sulton haqida shunday yozgan edi : "... Ulug‘ ijod yo‘li anchagina o‘ziga xos . Yozuvchi 90-yillarning boshlarida mo‘jazgina kitobchasi - " Oydinbuloq " bilan ko‘zga tashlanib ,

adabiy davrlarni o‘ziga bir qaratib olgach hayot deb atalgan tubsiz va cheksiz teranliklarga sho‘ngib ketgan bo‘yi 2010 - yilda qator hikoya va romanlari bilan u ummondan bosh ko‘targan ijodkordir . . . ”

Ulug‘bek Hamdam ta’kidlaganidek shoirning ijod yo‘li anchagina o‘ziga xos uslublari bilan boshqa adiblar uslubidan ajralib turadi . Isajon Sultonning xalqaro tanlovda sovrinli o‘rinlarga loyiq ko‘rilgan " Qismat " hikoyasida kenja o‘g‘il obrazi va baliq timsoli tasvirlangan . Kenja o‘g‘il obrazi o‘zining samimiyligi va oq ko‘ngilligi bilan kitobxon qalbida joy olishga ulgurgan . Baliq timsoli va sokinligi har xil rangda tovlanishi bir insonning xarakterini yaqqol ko‘rsatib bergen .

Isajon Sultonning " Shamolli kecha " hikoyasida tabiat tasviri bilan birga asar qahramonlarining hayotiy va ruhiy holati qorishiq holda tasvirlanadi . Badiiy asardagi tabiat tasviri peyzaj ( manzara ) deb ataladi . Tabiat tasviri kompozitsiyaning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib , asarning g‘oyaviy - estetik quvvatini oshiradi . Adabiyotda tabiat va inson o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik masalalari uzoq o‘tmishdan buyon muhim mavzular sirasida o‘rganilib kelinadi . Inson yaratilganidan buyon hamisha tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan jamiki tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi . [1] . Badiiy asarlardagi beriladigan tabiat tasviri badiiy asar mohiyatini belgilab beruvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi . Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi . Chunki manzaralar tasvirida ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati , qalamga olingan mavzu munosabati yuzaga chiqadi .

"... Shamol bu makonlarda to‘sattan qo‘zgaladi . Tog‘ oralarida yetikib , o‘ngirlar orasidan o‘kirib vahshat solib chiqib keladi . Qishloqning naridan - beri ohaklangan devorlardagi changlarni uchirib , tomlarning qumlarini sochib , ko‘cha tuprog‘ini to‘zg‘itib - to‘zg‘itib esaveradi . Makkapoyani ag‘anatib , yumalatib yuboradi . Dala-dashtdagi yumron inlarini qum bilan ko‘madi . Ovsarroq qushlar qurban uylarni tamomila buzib tashlaganida jazzi polaponchalari chirqillagancha yerga qulab tushib , vahshiy hayvonlarga yem bo‘lishadi . "

Yuqorida keltirilgan parchada shamol real voqelik , hamda taqdir shamoli tarzida namoyon bo‘ladi . Isajon Sulton asarlarida shamol - yozuvchi imkoniyatidagi tunganmas poetik imkoniyat . Yaratilajak timsollarning tasviridir . Yozuvchi nafaqat shamol , bo‘ron , to‘fonni o‘rni - o‘rni bilan hashorat-u hayvonotni , parranda-yu parqu bulutni , kapalaklar , ninachilarni tasvirlaydi .

Yozuvchining mazkur hikoyasida xalq ertaklariga xos ( o‘gay ona va o‘gay bolalar motivi ) stilizatsiyasi ko‘zga tashlanadi . Asarni o‘qir ekansiz , shamolli kechada o‘gay onaning javrashlaridan qochib , buvinikiga yo‘l olgan aka singilning hissiyotlarini rosmana hiz etasiz . Ular bilan qadam - baqadam to‘qayzordan qo‘rqinchli tun qo‘ynidan buvining uyigacha yetib borasiz . Yarim yo‘lda orqada qolib ketgan singil uchun qayg‘urasiz . Buvi bilan qo‘shilib akani so‘kasiz . Odamzod doim

ezgu niyat bilan yashaydi . Hikoya garchand akaning singilni topgan - topmagani noaniq xulosa bilan yakunlangan bo‘lsada , uning topilishini ich - ichimizdan istaymiz.

"Yigitcha yana ortiga qarab yo‘lga chiqdi . Kim bilsin ... ichidagi shiddatli qo‘rquvlarni yengib u makonlarda izg‘igani taqdirda ham , toparmikan singlisini ? Bu talato‘p va suron ichra nafis-nihol o‘n bir yashar qizaloq qaysi puchmoqlarda ekan hozir ? ... " [5] . Bu parcha orqali bola qo‘rquvni ich-ichidan his qilayotganini sezish qiyin emas . Bola buvisining uyiga borsa singlisi yo‘q . Buvisi uni urishib yana orqasiga qaytarib yubordi va singlisi topib kelmaguncha orqaga qaytmasligini qattiq tayinlaydi . Bola ham qo‘rquv , ham yig‘i aralash yana o‘sha qo‘rinchli tun bag‘rida o‘rmonga qaytishga majbur bo‘ladi .

Asardagi o‘gay onaning yonida chaqaloq big‘illashiyo otasining to‘ng‘illashi ostida qolishni istamay buvisining uyiga yo‘l olgan yigitcha hikoya voqealari markazida turadi . Akaning singlisiga bildirmayotgan qo‘rquvi tabiat tasviri bilan uyg‘un holatda aks ettirilgan .

Akasining qo‘rquvidan bexabar Nozik ham doimgiday uning orqasidan ergashadi . " Bu qizginani Nozik deydilar. Ikki yuzi bo‘g‘riqqan , qo‘lchalariyu barmoqchalari qadoqli , kaftlari qavargan , lekin qiyiqqa moyil qora ko‘zchalari kulib-kulib turadigan yoqimtoy qizaloq u . Nozik ismini buvisi qo‘ygan . Onasi uni Nazokat deb chaqirardi . Xolalari Latofat deydilar . Dugonalari Nozi desalar , ammalari Go‘zal deydilar . . . " .

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkunki, yozuvchi peyzaj tasviri orqali o‘z ichki kechinmalarini ba‘zi detallar orqali aks ettiradi. Tabiat tasviri , umuman olganda , badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalana olgan yozuvchi , ijodkor bu orqali o‘z mahoratini ham namoyon qila oladi . Farg‘onaning qator qishloqlari sanalgan ushbu hikoyada ifoda etilgan kuchli shamol nafaqat tabiat hodisasi , balki ramziy ma’noda jamiyatdagi turli talato‘plar , g‘alayonlar , ruhiy zo‘riqishlarning ham timsoli deyishimiz mumkin.

### **Foydalilanlgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. D.Asqarova "Zamonaviy Eron adabiyoti namoyondasi Roziya Tujjor hikoyalarida peyzaj tasviri."
2. D.Quranov "Adabiyotshunoslikka kirish" Toshkent:2001-yil.
3. D.Shodmonova "Yashar kamol asarlarida peyzaj va uning tarjimalarda aks etilishi" Translation forum 2022.
4. I.Sulton "Adabiyot nazariyasi" "O‘qituvchi" Nashriyot- matbaa.
5. I.Sultanov " Shamolli kecha" .